

MAVSUMDAN TASHQARI VAQTDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI YETISHTRISH

Umarov Sardorbek Anvarjon o'g'li

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7191339>

Annotatsiya. Bu maqola hozirgi kunda mavsumdan tashqari vaqtda aholiga sifatlil, toza oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtrish, issqxonalarini kam xarajat sarflagan holda qizdirish, qishloq xo'jaligi aholisning doimiy bandligini taminlash, hozirgi kundagi og'ilxonalarda tez-tez uchrab turadigan va bugungi kunda rivojlanib kelayotgan organik dehqonchlik mahsulotlarini aholiga yetkazib berish kabi muommolarni hal qilish borasida yozilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat, mahsulot, qishloq, xo'jaligi, mavsum, aholi, muotmo, chorvachilik, dehqonchlik, chordeh, majmua qoramol, pomidor, tabiiy, paxsa, plynka, organik.

ВЫРАЩИВАНИЕ ПРОДУКТОВ ПИТАНИЯ В МЕЖСЕЗОНЬЕ

Аннотация. В данной статье речь идет о выращивании качественных, экологически чистых продуктов питания для населения в межсезонье, отоплении теплиц с низкими затратами, обеспечении постоянной занятости сельскохозяйственного населения, что часто встречается в современных больницах и развивается сегодня. об органическом земледелии написано о решении таких задач, как доставка продукции населению.

Ключевые слова: продукты питания, продукт, сельское хозяйство, ферма, сезон, население, проблема, животноводство, хозяйство, хлев, комплексное скотоводство, томат, натуральный, солома, пленка, органический.

GROWING FOOD DURING THE OFF-SEASON

Abstract. This article is written on the solution of such treats as the cultivation of quality, clean food for the population in the off-season, the heating of the issqs at low costs, the provision of permanent employment of the agricultural population, the supply of organic farming products to the population, which are often found in the agitates of the present

Keywords: food, product, agriculture, agriculture, season, population, circulation, livestock, farming, chordeh, complex cattle, tomato, natural, cotton, film, organic.

KIRISH

Bugungi kunda oziq-ovqat muammosi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab butun jahon muammosiga aylandi. Bu muammo insonyat taraqqiyoti jarayonida, odamning paydo bo'lishi bilan bir vaqtning o'zida vujudga kelgan hisoblanadi. Chunki hech kim ham biron bir narsa yemasdan yoki ichmasdan turib uzoq vaqt yashay olmaydi. Hozirgi kunda esa dunyo aholisining soni yildan-yilga tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga odamlarning oziqovqatga bo'lgan talabi hamoshmoqda.

Olimlarning bashorat qilishicha, XXI asr oxiriga kelib dunyo aholisi o'n bir milliardga yetishi mumkin ekan. Bundan ko'rinib turibdiki vaqt o'tishi bilan odamlarning oziq ovqatga bo'lgan talabi ortishi mumkin ommo kamaymaydi. Ko'plab joylarda yuz beradigan oziqovqat muammosi esa iqtisodiy taraqqiyotga, balki shu joylardagi siyosiy va ijtimoiy beqarorliklarga olib kelishi mumkin. Bu kabi oziq-ovqat muommolarni yechish esa oxir oqibat qishloq xo'jaligi xodimlariga boribtaqaladi.

TADQIQOT

METODI

VA

METODOLOGIYASI

Xususan men o'zim Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumanida yashayman. Bizning tuman O'zbekistonning shimoliy hududida joylashgan bo'lib qish kunlari judayam soviq bo'lgani sababli mavsumdan tashqari vaqtda oziq-ovqat maqsulotlarini yetishtirish judayam qiyin sanaladi va issiqxonlarni isitish uchun ham qishloq xo'jaligida yashovchi aholidan haddan ziyod ko'p mablag' talab qilinadi. Natijada odamlar mavsumdan tashqari vaqtda qishoq xo'jaligi mahsulotlarni yetkazib berishga qiynaladi. Men o'zim qishloq xo'jalikda yashayotganligim uchun ham bu kabi muommolarga ko'plab duch kelganman. Asosan qishloq xo'jalik ikki tarmoqqa ajraladi chorvachilik va dehqonchilik. Chorvachilik bu qishloq xo'jaligining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, xalq xo'jaligining turli tarmoqlari orasida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki chorva mollaridan inson hayoti uchun eng zarur bo'lgan oziq-ovqat ya'ni sut va go'sht mahsulotlari olinadi. Dehqonchilikda esa asosan aholini vitamin va minerallarga boy bo'lgan sabzavot hamda poliz ekinlari bilan taminlaydi. Dehqonchilikda mavsumdan tashqari vaqtda yani qish kunlarida Sabzavot hamda poliz ekinlarini yetishtirish uchun aholidan juda ko'p mablag' talab etilishi sir emas. Misol tariqasida 1 gektar yerni isitish uchun 1 mavsumga 2-3 mln atrofida xarajat qilinadi va bu ko'rsatkich zamonaviy issiqxonalaridagi ko'satgich sanaladi. Endi oddiygina qishloq xo'jaligida yashaydigan aholining o'z molyaviy holatidan kelib chiqqan holda qurgan issiqxonasini olaylik misol tariqasida 1 yoki 2 sotix maydonga qurilgan issiqxonani isitish uchun ketadigan mablag' kamida 500 ming so'm atrofda bo'ladi. Mening loiyhamga keladigan bo'lsak. 1.4 sotix maydonga yarm paxsa yarmi plyonka bilan qoplangan "Chordeh" deb nomlangan binomni barpo qilinadi. Binoni chordeh deb nolashdan asosiy sabab bunda chorva mollari hamda dehqonchilik mahsulotlari birgalikda yetishtiriladi. Chordehning uzunligi 20 m eni esa 7 m bo'yi esa 2,5 yoki 3 m atrofida bo'lishi kerak. Chordehning shimol tarafi qalin paxsa bo'lib janub tarafi (iloji bo'lsa uch qavt qilib) bilan qoplanadi. Chunki shimol tarafdin muntazam ravishda sovuq hovo kelib turadi. Biz buning oldini olish uchun loydan qalinligi 60 sm chiqadigan paxsa qidik. Negaki qadimdan ma'lumki paxsa devorlar yozda issiqni va qishda sovuqni o'tkazmaydi. Janub tomondan esa muntazam ravishda quyosh nuri tushib turishini hisobga olgan holda (3 qavtli, qavatlar oralig'i 30-40 smdan oshmagan) polimetrik plyonka bilan qoplanadi. Plyonkaning bunday tarizda joylashishi ichkardagi issiqlikni termiz shaklida sovitmasdan ushlab berishidadir. Bundan tashqari plyonkaga muntazam ravishda tushib turga quyosh nuri Chordeh majmuamizning ichgi taraftni +1 +2 gradus isitishga yordam beradi. Endi sizlarga aytsam chorvachilikda 1.4 sotix maydonli og'ilxonada saqlanayotgan 400 kg li 15 bosh qoramol, tashqari harorati -10 gradusgacha bo'lgan sovuqda og'ilxona ichidagi haroratni +15, +20 gradus tutib tura oladi. Bundan ko'rinib turibdiki bu ko'rsatkich Chordeh majmuamizdagi qishloq xo'jaligi ekinlarni bemalol o'sib rivojlanishi uchun qulay sharoit hisoblanadi.

TADQIQOT

NATIJASI

VA

MUHOKAMA

Chordeh majmuamizning ichki tarafdin setka yordamida eni 3 m uzunligi 20 m li bo'lgan ikki bo'limga ajratiladi. Muntazam sovuq havo kelib turuvchi shimol tarafiga kamida 15 bosh qoramol bog'lanadi va quyosh nuri muntazam ravishda tushib turadigan janub tomonga Dehqonchilik mahsulotlaridan biri (misol uchun pomidor) ekilamiz.

Pomidor mevalarini kundalik ratsionda iste'mol qilish inson organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda pomidor ekini jami sabzavotlar yetishtiriladigan maydonlarning 40% dan ortig'ini egallaydi. Pomidor dunyo bo'yicha eng xaridorgir mahsulot hisoblanadi. Biz Chordeh majmuamizni amalyotga joriy qilar ekanmiz. Bu faqagina shimoliy hududlarda joylashgan aholi uchungina emas balki butun dunyda, qishloq xo'jaligida istiqomat qiluvchi barcha odamlar uchun birdek qo'l keladi. Bundan tashqari bizning Chordeh majmuamiz boshqa og'ilxona va issiqxonalaridan bir qancha afzalliklarga ega.

1. Issiqxona hech qanaqangi chiqimsiz tabiiy issiqlik manbai bilan ta'minlanadi. Bunda biz hech qanaqangi istish tizimlardan (gaz va to'q) foydalanshmiz shart emas.
2. O'simliklarni parvarishlash uchun o'g'it sotib olish kerak emas. Chunki chorva mollardan chiqadigan organik o'g'itlardan foydalaniladi.
3. O'simliklar hovoni filtrlash xususiyatiga ega. Hozirgi kundagi og'ilxonalarda uzoq vaqt chorva mollari bir joyda qolib ketgani uchun og'ilxonada badbo'y hid hosil bo'ladi va bundan chorva mollarining ishtahasi bug'ilib mahsuldorligi qochadi. Bizning Chordeh majmuamiz esa bunga yo'l qo'ymaydi.
4. Yetishtirilayotgan mahsulotimiz 100% organik tabiiy toza mahsulot hisoblanadi. Chunki biz Chordeh majmuamizda minerol o'g'itlar va kimyoviy periparatlardan foydalanmaymiz. Shuning uchun yetishtirgan mahsulotimiz 100 foiz tabiiy organik mahsulot hisoblanadi.

Endi siz o'ylayotgan bo'lsangiz kerak 0.6 sotix maydondan qancha hosil olsa bolar ekan deb. Biz 1 tup pomidorni olaylik. Odatda ochiq maydondagi bir tup pomidordan 3 kg hosil olinsa, issiqxonalarda gidroponika sharoitida bu ko'rsatkichni 12 kg tashkil qilar ekan. Endi 0.6 sotix maydonga pomidor ko'chatini oralig' masofasi 40 sm qilib joylashtradigan bo'lsak. 60 kv/m maydonga o'rtacha 150 dona pomidor ko'chatni eksak bo'ladi. Har pomidor ko'chati o'рта hisobda 10 kg da hosil beradigan bo'lsa.

XULOSA

Demak, biz 0,6 sotix maydondan 1 500 kg pomidor olsak bo'ladi. Bu faqatgina 0.6 sotix maydondan chiqadigan hosil. Siz molyaviy ahvolingizdan kelib chiqqan holda buni xohlasangiz 5-10 barobarga kattalashtirib qursangiz bo'ladi. Bunda hoslingiz miqdori ham yana 10 baravargacha oshadi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida: "Kambag'allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirishda eng tez natija beradigan omil bu, qishloq xo'jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirish hisoblanadi", – dedilar. Xususan bu majmuamizning asosiy maqsadi ham shundan iborat. Bundan tashqari aholiga sifatli, toza, arzon chorvachilik hamda dehqonchilik mahsulotlarini yetkazib berish bilan birga qishloq xo'jaligi istiqomat qiluvchi aholini doimiy bo'sh ish o'rinlar bilan ham taminlagan bo'lamiz.

REFERENCES

1. S.A. Azimboyev Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari Toshkent 2006-yil
2. Mo‘minov K.M, Islomov I, Kenjayev Yu Ch. Bozorov K.Sh “Dehqonchilik ilmiy izlanish asoslari bilan” Samarqand 2013-yil.
3. Usmanova K. A. et al. Meva-sabzavotlarni qayta ishlash usullarining hozirgi kundagi istiqbollari //Science and Education. С. 389-392.
4. Усманова К. А., Абдурахмонов И. А., Хасанов Р. Н. Методы сушки яблок и заготовка сушёных яблок в домашних условиях //Science and Education. 55-59. 3. Усманова К. А., Нурбое